

IQTISODIY TADQIQOTLAR
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ECONOMIC RESEARCH

ILMIY JURNALI

4
2021

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
“ECONOMIC RESEARCH”)**

ILMIY JURNALI

4

2021

Toshkent

4
2021

Elektron ilmiy jurnal
Научный журнал
Scientific magazine

IQTISODIY TADQIQOTLAR ILMIY
JURNALI

MUASSIS

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti

Tahrir kengashi raisi:

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof.,
akademik

Tahrir kengashi:

Eshov Mansur Po'latovich- i.f.d., professor
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor
Xudoyqulov Sadreddin Karimovich – i.f.d., professor
Begalov Baxodir Abdusalovich- i.f.d., professor
Bekmurodov Adxam Sharipovich- i.f.d., professor
Vaxabov Abduraxim Vasikovich- i.f.d., professor
Maxmudov Nosir Maxmudovich- i.f.d., professor
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich- i.f.d., professor
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich- i.f.d., professor
Jumayev Nodir Xosiyatovich- i.f.d., professor
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich- i.f.d., professor
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich- i.f.d., professor
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.n., PhD
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dosent
Asqarova Mavluda Turopovna- i.f.n., dosent
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich- i.f.n., dosent
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirowich – i.f.n., dosent
Kamalova Malika Nizamovna- i.f.n., dosent
Mamaraximov Begzod Erkinovich- i.f.n., dosent

Tahrir hay'ati:

Begzod O'rinnov- (AQSh)
Uktam Burxanov – (Chexiya)
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)
Mark Rozenbaum (AQSh)
Wolfgang Lukas (Germaniya)
N.V. Morozov (Rossiya)
Viktoria Vdovichenko (Ukraina)
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)
Sherqul Shodmonov (Toshkent)
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)
Axmedjon Mamatov (Toshkent)
Ju Jengron (Xitoy)
Jou Chingjiye (Xitoy)

© ISSN 2181-4457

**IQTISODIY TADQIQOTLAR ILMIY
JURNALI**

**4
2021**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный журнал
Scientific magazine**

Bosh muharrir:

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

Bosh muharrir o'rnbosari

Amirov L.F. - PhD

Adabiy muharrir

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

Musahhih:

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydala-nilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>

E-mail: economicresearchjournal@gmail.com

МУНДАРИЖА

IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT		
Salimov B.T., Salimov Sh.B.	Kichik biznes faoliyatini imitasjon innovasiyalar yordamida rivojlantirish.....	6
Abdullayeva M.K.	O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning asosiy jihatlari.....	11
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV		
Ismoilova G.T.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati-ning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari.....	17
Mirzarakhimova A.	Development of the digital economy in the Republic of Uzbekistan.....	25
Неделкина Н.И.	Открытость экономики нового Узбекистана: реалии настоящего и приоритеты для будущего развития.....	28
Turgunov D.T.	Макроэкономические показатели в Центральной Азии за 10 лет включая в период пандемии с зонами риска.....	36
INSON RESURSLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIY SIYOSAT VA BANDLIK		
Goyipnazarov S.B., Fayzieva M.Kh.	The assesment of the strategic roles of human resources professionals in the banking sector in Uzbekistan.....	46
Mamaraximov B.E.	Aholining demografik o'zgarishlari iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri.....	54
Хашимова Г.А.	Положительная динамика роста рабочих мест за 2020 год.....	58
Хакимова Л.Ш.	Формированию государственной политики в сфере занятости.....	61
To'xtayeva X.F.	Xodimlar mehnat motivasiyasini kuchaytirishni takomillashtirish yo'naliishlari.....	69
TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH		
Насырходжаева Д.С., Алимова Ш.А.	Проблемы развития конкурентоспособности промышленных отраслей в период пандемии.....	74
Yadgarov A.A.	Agrosug'urta-qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishini yumshatuvchi moliyaviy vosita sifatida.....	79
TILSHUNOSLIK VA PEDAGOGIKA: ILM-FAN RIVOJLANTIRISH YO'LLARI, MUAMMOLAR, TAHLIL VA NATIJA		
Исмаилова С.Р.	Сопоставление основы и окончания русского и узбекского языков	82

AHOLINING DEMOGRAFIK O`ZGARISHLARI IQTISODIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI

Mamaraximov Bekzod Erkinovich -
TDIU Fundamental iqtisodiyot
kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida aholining unumli va mahsuldar bandligini oshirishda norasmiy sektorning ta'sirini so`ndirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari aks ettirilgan. Unda unumli va mahsuldar bandlik, ishsizlik va kambag`allik ta'sir doirasida ish bilan bandlik masalalari bo'yicha tadqiqot natijalari, tahlillar va ular natijasida aholining unumli va mahsuldar bandligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: aholi bandligi, norasmiy sektor, kambag`allik, ish bilan bandlik, kambag`allik, mehnat bozori, ishsizlik

Kirish. Demografik jarayonlar, birinchi navbatda, ijtimoiy-mehnat sohasiga sezilarli ta'sir ko`rsatib, milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining asosiy omili bo`lib, aholining mehnat bilan bandlik va ishsizlik darajasining miqdoriga, yalpi ishlab chiqarish aholining jon boshiga to`g`ri keladigan o`rtacha daromad ko`rsatkichlarini, uy-joy bilan ta'minlash, keksaygan yoshdagi pensiya ta'minoti tashkillashtirishga bevosita ta'sir etib boradi.

Ma'lumki, jamiyatdagi demografik voqealar umumiyligi va muayyan individual tasodifiy sabablar ta'siri ostida amal qiladi. Bu jarayondagi ayrim voqeliklar vujudga kelishi ba'zi sabablarga ko`ra individual va noyobdir, lekin demografik jarayonda ular ketma-ketlik voqealardan iborat bo`lib, ular muntazam ravishda o`zgarib turadi.

Xorijiy mamlakatlardagi innovatsion tendentsiyalarning ta'siridagi demografik jarayonlar yetakchi mutaxassislar tomonidan hozirgi davrda insoniyatning eng muhim va dolzarb omillar sifatida tan olinmoqda. O`zbekistonda ham keyingi yillari bu masalalar, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholi miqdorining o`zgarish dinamikasi, barcha hududlarda mutanosib joylashuvi, tarkibiy tuzilishi ko`pincha davlatimizning iqtisodiy rivojlanishning strategik omillari va uning kelajak uchun ijtimoiy-iqtisodiy parametrlarini shakllantirishiga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O`zbekistonning demografik jarayonlari hozirgi xalqaro demografik nizomlarga muvofiq sog`lom tarzda rivojlanib bormoqda.


Dunyo tajribasidan kelib chiqib ta'kidlaydigan bo`lsak, bugungi rivojlanish davrida dunyoning barcha davlatlari kabi O`zbekiston ham demografik sohasida evolyutsion jarayonlarni, ya'ni demografik o'tishning muayyan bosqichlarini ko`rishi muqarrardir. Ma'lumki, ularning birinchisi yuqori darajadagi tug'ilish va o`lim miqdori bilan bog`liq bo`lib, ko`p sonli katta oilalar va avlodlarning tez o`zgarishi bilan ajralib turadi. Ikkinchi bosqichda ijtimoiy taraqqiyot va sog`liqni saqlash sohasidagi muvaffaqiyatlar tufayli o`lim darajasi keskin kamayishi, ammo

tug`ilishning yuqori darajasi saqlanib qolishi bilan ajralib turadi, bu aholi miqdorining keskin va nazoratsiz o'sishiga olib keladi. O'zbekiston dunyoning ko`plab davlatlari singari o'zining demografik rivojlanishida ikkinchi bosqichdan o'tib, hozirgi davrda tarkibida yosh aholi o'sib borishi tufayli va umumiy o'lim ko`rsatkichi tug`ilish darajasidan yuqoriroq bo`lgan uchinchi bosqichda amal qilmoqda.

O'zbekistonda aholining tabiiy o'sish sur'atlarining beqaror o'smayotganligi sababli demografik rivojlanish ham notejis rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan jahon demografik ko`rsatkichlari bilan taqqoslaganda, O'zbekiston tabiiy ravishda o'sish sur'ati 25 promilledan 15 promillegacha tushgani sabab dunyoning rivojlangan mamlakatlari o`rtasida o`rtacha ko`rsatkichga ega.

Har bir mamlakatda ishchi kuchi bandligini ta'minlash maqsadida turli islohotlarni amalga oshiradi yangi ish o'rinalarini yaratish, kadrlarni qayta tayyorlash, kasbga doir mahoratlarni oshirish va hokazo. Lekin yuqorida sanab o'tilgan islohotlar har doim ham yuqori samara beravermaydi, buning sababi esa aholi sonining o'sishi, hamda pensiyaga chiqayotganlar va mehnatga layoqatli yoshga yetayotganlarning samarali o`rin almashishini ta'minlaydigan tizimning shakllantririshning murakkabligidadir.

O'zbekistonda 2020 yil yanvar holatiga ko`ra, jami aholi soni 33,9 mln. kishi bo`lib, shundan aholining 29 foizini 15 yoshgacha bo`lgan, 63 foizini 15-60 yoshdagi va 8 foizini 60 yoshdan yuqori bo`lgan aholi tashkil etgan. Bundan ko`rinadiki mamlakatda 21 mln.dan ortiq mehnatga layoqatli yoshdagi aholi mavjud (iqtisodiy faol va nofaol aholi hisobga olinganda) bu esa iqtisodiyotda mehnat resurslari mamlakatda yetarli darajada ekanligini bildiradi. Mehnatga layoqatli aholi sonining ortishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko`rsatishi bilan bir qatorda, yangi ish o'rinalarini yaratish, ishsizlik kabi muammolarni keltirib chiqaradi.



1-rasm. O'zbekiston aholisining yosh bo'yicha taqsimlanishi (2020 y.)

Manba: rasm muallif tomonidan Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Ishchi kuchi samaradorligini oshirish hozirgi vaqtida hukumat oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sababi ishchi kuchi samaradorligini oshirish orqaligina ishsizlikning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. Samarali ishchi kuchi tarkibini shakllantrish uchun hodimlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash jarayoniga jalb etish zarur. Shuningdek, ishchi kuchining eng muhim motivatorlaridan biri bo`lgan ish haqi masalasi ham bu yerda muhim rol o`ynaydi. Buning uchun avvalambor, hodimlar oylik maoshini iste'mol savatchasi talabiga mos tarzda shakllantirish, yoki milliy valyuta so`mning to`lov qobiliyatini oshirish orqali real ish haqi darajasini bozor baholariga moslashtirish kerak.

1-jadval

O`zbekiston Respublikasida YaIM va ishsizlik darajasi o`zgarish tendensiyalari

Yillar	YaIM (mlrd. so`m)	YaIM o`zgarishi (%)	Aholi soni o`zgarishi, (%)	Ishsizlar soni (ming kishi)	Ishsizlik darajasi (%)
2011	96 949,6	107,8	104,0	622,4	5,0
2012	120 242,0	107,4	101,5	626,3	4,9
2013	144 548,3	107,6	101,5	639,7	4,9
2014	177 153,9	107,2	101,7	687,0	5,1
2015	210 183,1	107,4	101,7	709,4	5,2
2016	242 495,5	106,1	101,8	724,0	5,2
2017	302 536,8	104,5	101,7	837,0	5,8
2018	406 648,5	105,4	101,7	1368,3	9,3
2019	510 117,2	105,8	101,8	1335,3	9,0
2020	580 203,2	101,6	102,0	1558,4	10,5

Manba: Jadval O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi va Jahon banki ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadvaldan ko`rish mumkinki mamlakatda YaIM hajmi so`nggi yillarda barqaror ravishda ko`paymoqda, YaIM miqdori 2020 yilda 2011 yilga nisbatan 6 barobarga oshgan. Mamlakatda ishsizlik darajasi o`zgarishi esa 2011-2020 yillarda mos ravishda 5,0 foizdan 10,5 foizga o`sgan.

Ishchi kuchidan samarali foydalanish natijasida barqaror iqtisodiy o`sish davomiyligini va sifatini oshirish uchun quyidagilarni chora-tadbirlarni taklif etamiz:

- aholi real daromadlarini oshirish orqali ularning, to`lovga layoqatlilik darajasini o`stirish va shu bilan mehnat unumdonligini oshirishga erishish;
- hududlarning geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda ish o`rinlarini tashkil qilish orqali bo`sh turgan ishchi kuchini mehnatga jalb etish;
- ish jarayoniga innovatsion yondashib jamoa mehnat faoliyatiga yangiliklarni joriy etuvchi ishchi hodimlarni ichki rag`batlantirish tizimini shakllantirish;
- jahon tajribasiga binoan korxona daromadi oshib borishi bilan hodimlarga to`lanadigan ish haqi miqdorini oshirib borish tizimini hayotga tatbiq etish orqali hodimlarni ish jarayoniga mas`ulyatini oshirish;

➤ kasaba uyushmalari faoliyatini jahon andozalariga mos tarzda tashkil etish va ularning hodimlar huquqlarini himoyalash va rag`batlantirish tizimining samaradorligini oshirish.

Yuqorida keltirib o`tilgan takliflarni hayotga tatbiq etilishi natijasida ish beruvchilar va hodimlar o`rtasida o`zaro ma`sulyat darajasini oshirish va shu bilan bir qatorda ishchi hodimlarning ish jarayoniga munosabatini ijobiy tomonga o`zgartishiga ularning o`z faoliyatiga yuqori darajadagi samadorlik bilan yondoshuviga erishish mumkin. Hozirgi vaqtda ishsizlikning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirini faqatgina ishbilan band aholining mehnat unimdorligini oshirish orqali kamaytrish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 6 maydagи "Aholi bandligini ta`minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy komplekslarning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy ma`sulyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Manba:<https://m.sputniknews-uz.com>*
2. *U.A. Madrahimov, i.f.n., dots. PMTI iqtisodiy o'sishga yalpi talab va uning tarkibi ta'siri. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil*
3. *Sh, Shodmonov Sh, and U. V. G`ofurov. "Iqtisodiyot nazariyas: Darslik." Toshkent.: IQTISOD-MOLIYa (2010).*
4. *Mamaraximov Bekzod Erkinovich. "Hozirgi davrda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning o`ziga xos xususiyatlari" Ekonomika i finansi (Uzbekistan), no. 3 (135), 2020, pp. 108-114.*
5. *Abdullayeva, M. (2019). Kichik biznesni rivojlantirishning institutsiional jixatlari. Arxiv nauchnix issledovaniy, 1(1). izvlecheno ot <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/574>*
6. **jadavallar va rasmlar davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi*
7. www.stat.uz
8. [www.sputniknews-uz.com](https://m.sputniknews-uz.com)

IQTISODIY TADQIQOTLAR

ELEKTRON ILMIY JURNALI

Tahririyat manzili:

100003, Toshkent sh., Chilonzor tumani, I. Karimov ko'chasi 49-uy
Telefonlar *********